NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - sentabr 169-5-70-Q/22 Konimex tuman hokimligi

Konimex tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga svetaforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Konimex tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlar o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (U.Rahmatov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Samandarov)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (R.Shokirov)ga mazkur svetaforlar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Konimex tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning

rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Muratov zimmasiga yuklatilsin.

Konimex tumani hokimi **Ro`ziyev R.N.**

Konimex tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
169-5-70-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatilgan svetafor bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni
1	4R48 “Zarafshon trakti” avtomobil yo’li	210,6 km	4